



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> January, 2025

## **BIZNESDA MUVAFFAQIYATSIZLIKNI TAN OLISH VA O'Z VAQTIDA BOZORDAN CHIQISH**

Abdumalikov Shohro‘zbek Mirzoxidovich.

Samarqand shahar PIMA tizimidagi 1-IMIning 10-sinf o‘quvchisi.

Biznes muvaffaqiyati ko‘pincha to‘g‘ri qarorlarni o‘z vaqtida qabul qilishga bog‘liq. Ammo muvaffaqiyatsiz borayotgan loyihadan chiqish qarorini qabul qilish oson emas. O‘z ishonchini yo‘qotishdan qo‘rqish yoki ketkazilgan sarmoyani qaytarish istagi ko‘pincha kompaniyalarini yanada chuqurroq inqirozga olib keladi. “Million dollarlik xatolar” kitobi muallifi shunday yozadi: “Ba’zan g‘alaba qozonish uchun yutqazishni qabul qilish kerak. Davom ettirish jasorat talab qiladi, ammo to‘xtash mantiq talab qiladi.”

Kompaniyalar tarixida muvaffaqiyatsizlikka olib kelgan chiqish qarorlarini qabul qila olmaslikning ko‘plab misollari bor. Ular orasida “Kodak” va “Nokia” singari yirik korxonalarini ham ko‘rish mumkin. Kodak raqamli fotografiya texnologiyasini ixtiro qilgan birinchi kompaniyalardan biri edi. Ammo ular bu yangi texnologiya kompaniyaning asosiy daromad manbai bo‘lgan pylonka sotuviga tahdid solishini anglab, uni bozorga chiqarishni kechiktirdi. Buning oqibatida raqamli fotografiya bozorida “Canon”, “Sony”, va “Nikon” kabi raqobatchilar oldinga chiqib ketdi. 2012-yilda “Kodak” kompaniyasi bankrotlikka yuz tutdi.

“Nokia” uzoq yillar davomida mobil telefonlar bozorining yetakchisi bo‘lib keldi. Biroq ular o‘z vaqtida Android operatsion tizimiga o‘tish qarorini qabul qilmadi va eski tizimni takomillashtirishni davom etdi. Natijada, ular o‘z pozitsiyasini “Apple” va “Samsung” kabi kompaniyalarga boy berdi. Agar ular eskirgan strategiyadan voz kechganida, bugungi kunda mobil texnologiya gigantlari qatorida bo‘lishlari mumkin edi. “Deloitte” kompaniyasining tadqiqotlariga ko‘ra, yirik tashkilotlarning 35 foizi muvaffaqiyatsizlikka uchragan loyihalardan o‘z vaqtida chiqmay, o‘rtacha 20 foiz qo‘sishma mablag‘ni havoga sarflashadi. Shuningdek, AQSh bozorida yiliga qariyb 100 ming “Start Up” noto‘g‘ri qarorlar sababli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, ularning aksariyati yo‘qotishlarni tan olishdan qo‘rqnligi natijasidadir. To‘xtash va chiqish qarorini qabul qilish yutqazish emas, balki strategik ustunlikdir. Bu quyidagi jihatlarni kafolatlaydi:



# E CONF SERIES



**International Conference on Economics, Finance, Banking and Management**

**Hosted online from Paris, France**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

24<sup>th</sup> January, 2025

1. Moliyaviy yo‘qotishlarni cheklash: kelajaksiz loyihalarni davom ettirish o‘rniga, yangi g‘oyalarga investitsiya qilish imkoniyati.

2. Reputatsiyani saqlash: Muvaffaqiyatsizlikni tan olish va tezkor yechim qidirish biznes hamkorlari va mijozlar ishonchini mustahkamlaydi.

3. Keljakni rejalashtirish: Noto‘g‘ri loyihadan chiqish keljakdagি muvaffaqiyat uchun yo‘l ochadi.

“Million dollarlik xatolar” kitobida yana bir muhim ibora keltiriladi: “Xatolar faqat muvaffaqiyatsizlik bo‘lib qoladi, agar ulardan saboq olinmasa. Noto‘g‘ri yo‘ldan chiqish – muvaffaqiyatga bir qadam yaqinlashishdir.”

Biznesda muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omil – o‘z vaqtida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishdir. Chiqish qarorini tan olish – yo‘qotish emas, balki yangi imkoniyatlar sari yo‘l ochuvchi jasoratdir. Kodak va Nokia kabi kompaniyalarining xatolaridan saboq olib, tadbirkorlar o‘z loyihalarining iqtisodiy va strategik holatini doimiy tahlil qilib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatga erishishning eng muhim sharti – vaqtida to‘xtashni bilishdir. Bu faqat moliyaviy resurslarni emas, balki tadbirkorlikning eng qimmatli boyligi – vaqtni ham tejaydi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Pavel Annenkov “Million dollarlik xatolar” kitobi.
2. Robin Sharma “Muvaffaqiyatga erishishning 200 ta siri” kitobi.
3. Internet manbalari.